

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi
“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
“Shinjon” tajribasi (76x10 sm qo‘shqator sxemasida, plyonka ostida, 220-240 ming/ga ko‘chat soni) asosida intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llagan holda paxta etishtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan agrotexnologiya ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - xorijdan olib kelingan ko‘plab g‘o‘za navlari respublika sharoitida (76x10 sm qo‘shqator sxemasi bo‘yicha ekiladi va samarasi yuqori bo‘lgan navlar tanlab olinishga erishiladi: - Respublika sharoitida xorijiy g‘o‘za navlarini ko‘chat qalinligini 220-240 ming/ga etkazilishini natijasida g‘o‘zaning morfobiologik holatini aniqlashga erishiladi va paxta terimini mashinada terishga imkon yaratiladi: - xorijiy g‘o‘za navlari plyonka ostiga ekilishi va tomchilatib sug‘orilishi natijasida an’anaviy g‘o‘za etishtirishga nisbatan suv 35-40 % iqtisod qilinadi: - xorijiy g‘o‘za navlari plyonka ostiga ekilishi natijasida ularga qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlarni suyultirilgan holatda berilishi sababli g‘o‘za navlari mineral o‘g‘itlarni oson o‘zlashtirishga erishiladi va 20-25 % ga o‘g‘it iqtisod qilinadi: - plyonka ostiga ekilgan xorijiy g‘o‘za navlarini intensiv texnologiyalar asosida begona o‘tlarga qarshi kurashish choralari ishlab chiqilishi natijasida etishtirishga ketadigan xarajatlar 15-20% ga iqtisod qilishga erishiladi. - Shinjon tajribasi asosida xorijiy g‘o‘za navlarini etishtirishga ketadigan xarajatlar miqdori 25-30 % ga, mineral o‘g‘itlar miqdori 15-20 % ga, suv sarfi 30-35% ga yoqilg‘i miqdori 15-20% ga, iqtisod qilinishi natijasida paxta tolasini tan narxi pasayadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.